

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHEVA DILBAR FARXODOVNA

**KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN BOG‘LOVCHI ASOSIDAGI
O‘Z-O‘ZIDAN ZICHLANUVCHI MAYDADONADOR BETON TARKIBINI
ISHLAB CHIQISH**

05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Tosheva Dilbar Farxodovna

Kompleks modifikatsiyalangan bog‘lovchi asosidagi o‘z-o‘zidan zichlanuvchi
maydadonador beton tarkibini ishlab chiqish.....3

Тошева Дилбар Фарходовна

Разработка составов самоуплотняющихся мелкозернистых бетонов с
комплексно-модифицированным вяжущим23

Tosheva Dilbar Farhodovna

Development of self-compacting fine-grained concrete compositions with a
complex-modified binder43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works47

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHEVA DILBAR FARXODOVNA

**KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN BOG‘LOVCHI ASOSIDAGI
O‘Z-O‘ZIDAN ZICHLANUVCHI MAYDADONADOR BETON TARKIBINI
ISHLAB CHIQISH**

05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6078. raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Adilxodjayev Anvar Ishanovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Hasanov Baxridin Baratovich**
texnika fanlari doktori, professor

Amirov Tursoat Jumayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "17" yanvar soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "6" yanvar kuni tarqatildi.
(2026 yil "5" yanvardagi 30-raqamli reestr bayonnomasi).

S.S. Shaumarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari
t.f.d., professor

U.Z. Shermuxamedov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

A.A. Ishanxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichi konstruksion materiallarga yuqori talablar qo‘ymoqda, bu esa ularning xossalarini doimiy ravishda takomillashtirishning eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, qurilish sohasida o‘z-o‘zidan zichlanuvchi maydadonador betonlarni innovatsion yechimlar sifatida qo‘llash orqali amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, sementli beton muqobili yo‘q yuqori samarali material sifatida qo‘llash jarayonlari hamda kompleks modifikatsiyalangan bog‘lovchi asosidagi o‘z-o‘zidan zichlanuvchi maydadonador beton tarkibini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda qurilish sanoatida yuqori zichlikka, past kapillyar g‘ovaklikka va yangi gidratlar hosil bo‘lishiga ega bo‘lgan sement toshining tuzilishini maqsadli shakllantirish, beton texnologiyasida maydadonador mineral to‘ldiruvchilari va kimyoviy moddalar qo‘shishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o‘z-o‘zidan zichlanuvchi maydadonador betonlar olishning eng qulay va oddiy usuli kimyoviy modifikatorlar va mineral mikroto‘ldiruvchilar asosidagi kompleks yuqori samarali qo‘shimchalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik yangilash, qurilish materiallarini tayyorlashda energiya va resurs sarfini kamaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O‘zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi"da "...Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy yetish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning yenergiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko‘rilsin..."¹ bo‘yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, belgilangan xossalarga ega energiyatejamkor va ekologik toza qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ularni mahalliy xom ashyolar asosida ishlab chiqarishning mavjud texnologiyalari va energiya samarador yondashuvlarini yaratish hamda kompleks modifikatsiyalangan bog‘lovchi asosidagi o‘z-o‘zidan zichlanuvchi maydadonador beton tarkibini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarorlari hamda 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-sonli "O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmonlarida nazarda tutilgan va qurilish sanoati bilan bog‘liq boshqa

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Materiallar va energiya sarfini kamaytirib, zaruriy fizik-mexanik xossalar majmuasiga ega bo'lgan sement betonlarini ishlab chiqishda betonni mineral mikroto'ldiruvchilar va kimyoviy qo'shimchalar bilan modifikatsiyalash bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Turli xil qo'shimchalar asosidagi ko'p komponentli yuqori sifatli betonlarda qo'llash asoslarini rivojlantirishga taniqli xorijiy olimlar V.I. Solomatov, G.I. Gorchakov, Yu.M. Bajenov, L.I. Dvorkin, P.G. Komoxov, A.V. Voljenskiy, Yu.M. Butt, I.A. Ribyev, B.V. Gusev, E. Freysine, A.A. Afanasev, N.B. Urev, S.M. Mchedlov-Petrosyan, V.G. Batrakov, V.N. Virovov, A.G. Komar, A.S. Panteleev, V.T. Yerofeev, V.I. Kalashnikov, V.I. Kondrashenko, T.I. Petrova, S.V. Shestoporov, A.Ye. Sheykin, A.V. Sheynfeld, P.A. Rebinder, V.G. Batrakov, V.B. Ratinov, A.V. Usherov-Marshak, V.S. Ramachandran, B.R. Falikman, V.M. Kolbasov, S.M. Royak, V.V. Timashev, T.V. Kuznesova, M. Venyua, X. Teylor, M. Regur, M. Kolleparadi, R. Kondo, D. Roy, K. Xattorn, M. Daymon, R. Fere, G. Hintze, F. Loher, T. Thorvaldson, F.J. Hogan, L.U. Spellman, . Walter, H. Uchikawa, Sh. Hanehara, F. Lallard, T.S. Do, A. Durecovic, S. Sarcar, I. Older, V. Yogendran, P. Aitchin, M. Cheurexu, E.G. Deharrard, V. Mechtherine, P.T. Santhosh, M. Schmidt, P. Kleingelhöfer, D. Frank, K. Fridemenn, P. Richard, M. Chentern, P.Y. Blais, C. Danrioc, A.S. Belardi, K.K. Sideris, E. Guneyisi, R. Flatt, R. Lewis, J. Plank, I. Schober, H. Okamura, K. Ozawa, K. Yamada, M. Fenollera, L. Garcia, P. Richard, G. Edward, M. Buil, A. Neville va boshqalar ulkan hissa qo'shganlar.

O'zbekiston Respublikasida turli yillarda ko'p komponentli yuqori sifatli betonlar texnologiyasida mayda dispersli mineral kukunlardan foydalanish sohasida ilmiy tadqiqotlarni A.I. Adilxodjayev, A.A. To'laganov, E.U. Qosimov, M.K. Tohirov, N.A. Samig'ov, B.B. Hasanov, V.M. Soy, I.M. Maxamataliyev, S.S. Shaumarov, X.X. Komilov, K.S. Umarov, A.T. Ilyasov va boshqa olimlar olib borganlar.

O'tkazilgan tadqiqotlarda ko'p komponentli betonlarning maqbul tarkiblarini loyihalash masalalari batafsil yoritilgan, ularning texnologik va fizik-mexanik xossalarining kimyoviy modifikatorlar va mineral mikroto'ldiruvchilarning sement tizimiga ta'sir mexanizmi bilan o'zaro bog'liqligi ochib berilgan.

Biroq, harakatchan o'z-o'zidan zichlanadigan beton qorishmalaridan tayyorlangan materialning talab etilgan fizik-mexanik ko'rsatkichlarini shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan bir qator muhim jihatlar hali yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, mineral mikroto'ldirgichlar va superplastifikatorlarning kompozit tuzilishiga, sement va to'ldirgich orasidagi kontakt qatlam qalinligi va

zichligiga, g'ovakli strukturaning shakllanishiga ta'siriga kam e'tibor berilgan bo'lib, bu chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Bundan tashqari, ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonlarning xossalarini shakllanishiga mineral mikroto'ldiruvchi turi va miqdorining ta'siri yetarlicha o'rganilmagan.

Shu munosabat bilan, metallurgiya sanoati hosil bo'luvchi qoliplash chiqindilaridan faol mineral qo'shimcha sifatida foydalanib, betonning samarali tarkiblarini ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlarni kengaytirish vazifalari alohida dolzarflik kasb etadi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishi № ББ-Ф4-04 "Kompozision materiallarning polistrukturali nazariyasi asosida ko'p komponentli yuqori sifatli betonlar tarkibini optimallashtirish va xossalarini bashorat qilish" (2018-2020) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ЦЕМИ42,5H markali portlandsement asosida superplastifikator (SP) va metallurgiya ishlab chiqarishining mexanik faollashtirilgan kuygan qolip chiqindilari (KQCh)dan iborat kompleks modifikator yordamida ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o'z-o'zidan zichlanuvchan maydadonador beton tarkiblarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

SP va KQCh asosidagi kompleks modifikator bilan sement toshining tuzilish jarayonini o'rganish;

KQCh va SP qo'shilgan o'z-o'zidan zichlanadigan maydadonador beton qorishmasi tarkibini optimallashtirish;

KQCh va SP qo'llanilgan o'z-o'zidan zichlanadigan maydadonador beton qorishmalari va betonlarni ishlab chiqarishning texnologik omillari hamda fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish;

tadqiqot natijalarini texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash va ishlab chiqarishga joriy qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida kompleks modifikatsiyalangan o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonlar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida superplastifikator va mexanik faollashtirilgan KQCh qo'llanilgan holda tayyorlangan o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va texnik-iqtisodiy xossalari qabul qilingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan, kompleks modifikatsiyalangan beton qorishmasi va betonlarning sifat ko'rsatkichlari va xossalarini o'rganishning standartlashtirilgan usullaridan hamda qorishma tarkibini optimallashtirishning matematik rejalashtirish usullaridan va eksperimentlar natijalarini statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

KQChdan faol mikroto'ldiruvchi sifatida foydalanib, polikarboksilat superplastifikatorining sinergetik ta'sirini hisobga olgan holda, gidratatsiya

jarayonlarini jadallashtirish orqali ЦЕМИ42,5H oddiy portlandsement asosida tarkibi yaxshilangan, tejamkor, o'z-o'zidan zichlanadigan, kompleks modifikatsiyalangan maydadonador betonlarni loyihalash mumkinligi haqidagi ishchi gipoteza tasdiqlangan;

polikarboksilat superplastifikatorning bog'lovchi zarrachalarining bir tekis taqsimlanishiga yordam beradigan va ularning aglomeratsiyasini oldini oladigan sterik ta'siri, shuningdek, mexanik faollashtirilgan KQCh yuzasida faol markazlarning mavjudligi tufayli strukturaviy barqaror yuqori harakatchan tizim ta'minlanishi, natijada strukturaning barqarorligi va reologik hamda mustahkamlik xossalari optimal kombinatsiyasi bilan tavsiflangan o'z-o'zidan zichlanadigan maydadonador beton aralashmasini olish mumkinligi isbotlangan;

mexanik faollashtirilgan KQChni mineral mikroto'ldiruvchi sifatida qo'llash amorf kremnezemning kalsiy gidroksid bilan o'zaro ta'sirini kuchaytirishi, muhitning pussolan faolligini oshirishi va natijada sement toshining tuzilishini zichlashtiradigan hamda mustahkamlaydigan qo'shimcha yangi birikmalar hosil bo'lishi isbotlangan;

SP va KQCh asosidagi kompleks modifikatorni qo'llash qorishmaning suv miqdorini kamaytirish va gidratatsiya jarayonlarini jadallashtirish hisobiga sement toshining umumiy g'ovakligini kamaytirishi, yirik kapillyar g'ovaklar ulushini kamaytirishi, bu esa sement betonining zichligi va uzoqqa chidamliligini oshirishga olib kelishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oddiy portlandsement asosida, superplastifikator va KQCh larni qo'llash orqali ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador beton qorishmalarining maqbul tarkiblarini olish usuli ishlab chiqilgan;

kompleks qo'shimcha tarkibini tanlash, uni o'z o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonlar xossalari ta'sirini baholangan hamda ishlanmaning texnik-iqtisodiy samaradorligi asoslangan;

SP va KQCh asosidagi kompleks modifikatorni qo'llash qorishmaning suv miqdorini kamaytirish va gidratatsiya jarayonlarini jadallashtirish hisobiga sement toshining umumiy g'ovakligini kamaytirishi, yirik kapillyar g'ovaklar ulushini kamaytirishi aniqlangan va monolit va yig'ma temirbeton konstruksiyalarni ishlab chiqarishda joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlar fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari va fizik-mexanik sinovlar, eksperimentlarni matematik rejalashtirish vositalari va usullari, eksperiment natijasida olingan xulosalarning nazariy qonuniyatlarga muvofiqligi, shuningdek, ishlab chiqarish sharoitida aprobasiyasidan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar sement tizimida superplastifikatsiyalovchi qo'shimchalar va dispers mineral mikroto'ldirgichlar ishtirokida sementli o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonlarning struktura hosil qilish jarayoni haqidagi tasavvurlarni ma'lum darajada chuqurlashtiradi, bu esa betonning struktura qilish nazariyasi va amaliyotining texnologiyasi va

xossalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xom ashyolardan olingan kompleks qo‘shimchalar asosida talab etilgan xossalar majmuasiga ega bo‘lgan o‘z-o‘zidan zichlanuvchi maydadonador betonlarni olish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompleks modifikatsiyalangan bog‘lovchi asosidagi o‘z-o‘zidan zichlanuvchi maydadonador beton tarkibini ishlab chiqish bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari asosida:

metallurgiya sanoati chiqindilari va polikarboksilat superplastifikator asosida kompleks modifikatsiyalangan betonlarni o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar "BUNYODKOR TEMIR-BETON INTER SERVIS" MChJda B35 sinfli betondan monolit qurilish konstruksiyalarini ishlab chiqarishda joriy qilingan ("O‘zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2025 yil 17 noyabrdagi 02/15-3766-sonli ma‘lumotnomasi). Bunda hajmi 1000 m³ ni tashkil etuvchi beton qorishmasining sinov partiyasi ishlab chiqarilgan. Natijada, orayopma plitalari ishlab chiqarishdan olingan iqtisodiy samara – 119,8 mln so‘mni tashkil qilgan;

strukturasining shakllanish qonuniyatlari asosida sement sarfi 1,25 barobar kamayishi, muzlashga bardoshlilik 1,5 barobar oshishi va suv o‘tkazmasligi ikki sinfga ko‘tarilish metodikasi "BUNYODKOR TEMIR-BETON INTER SERVIS" MChJda B35 sinfli betondan monolit qurilish konstruksiyalarini ishlab chiqarishda joriy qilingan ("O‘zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2025 yil 17 noyabrdagi 02/15-3766-sonli ma‘lumotnomasi). Bunda hajmi 500 m³ ni tashkil etuvchi beton qorishmasining sinov partiyasi ishlab chiqarilgan. Natijada, ustun va to‘sinlar ishlab chiqarishdan olingan iqtisodiy samara – 59,9 mln so‘mni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobeiyasi. Dissertasiyaning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda, 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida chop etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 3 ta ixtiro uchun patent olingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning **kirish** qismida dissertasiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy

ishlar va dissertasiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning holati va tadqiqot vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida ko'rib chiqilayotgan mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning tahliliy sharhi keltirilgan.

Adabiyot manbalarini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, jahon qurilish amaliyotida yuqori ekspluatatsion xossalarga ega bo'lgan o'z-o'zidan zichlanuvchi beton qorishmalari va ular asosidagi betonlar keng rivojlanmoqda. O'z-o'zidan zichlanadigan maydadonador betonlar alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ular bir xil tuzilishi, yuqori texnologikligi va mexanik tebranishsiz monolit qurilishda qo'llash imkoniyati bilan ajralib turadi. Bu esa konstruksiyalarning sifati va uzoqqa chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yaxshilangan xossalarga ega bo'lgan o'z-o'zidan zichlanadigan beton aralashmalarini olishning eng samarali usuli kimyoviy qo'shimchalar va mineral komponentlarni o'z ichiga olgan kompleks modifikatorlardan foydalanishdir. Ushbu talablarga betonning zarur fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari majmuasini ta'minlaydigan yangi avlod polikarboksilatli SP lar va mexanik faollashtirilgan KQCh qo'shimchalar mos keladi.

Shu bilan birga, adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, superplastifikator va mineral to'ldiruvchi asosidagi kompleks qo'shimchanning gidratatsiya jarayonlariga, g'ovak tuzilmaning shakllanishiga va o'z-o'zidan zichlanadigan maydadonador betonlarda sement toshining tuzilishiga ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa ushbu yo'nalishda keyingi tadqiqotlarning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Adabiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, **ishchi gipoteza** shakllantirildi. Mikroto'ldirilgan sement tizimidagi fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirlar qonuniyatlari haqidagi zamonaviy tasavvurlarga asoslanib, bir tomondan, KQChni gidratatsiya jarayonlarini tezlashtiruvchi, betonning kerakli tuzilish parametrlarini maqsadli shakllantirishga ko'maklashuvchi, hamda o'z-o'zidan zichlanadigan beton aralashmasining qatlamlarga ajralishini oldini oluvchi faol mineral qo'shimcha sifatida, boshqa tomondan esa, polikarboksilat superplastifikatorining kuchli sinergetik ta'siri tufayli yuqori harakatchan beton aralashmalarini olish imkoniyatlarini hisobga olib, CEMI32,5N markali portlandsement asosida foydalanish xossalari yaxshilangan o'z-o'zidan zichlanadigan kompleks modifikatsiyalangan maydadonador betonning optimal tarkibini ishlab chiqish mumkinligi faraz qilinadi.

Dissertatsiya ishining "**Tadqiqot usullari va qo'llanilgan materiallar**" deb nomlangan ikkinchi bobida kompleks qo'shimcha olish uchun ishlatilgan dastlabki xomashyo komponentlarining xususiyatlari keltirilgan, shuningdek, eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishda qo'llanilgan usullar tavsiflangan. Sement kompozitsiyalarini tayyorlash uchun GOST 31108-2020 talablariga muvofiq "Qizilqumsement" MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan IJEMI42,5H markali portlandsement ishlatildi. Mineral mikroto'ldiruvchi sifatida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ metallurgiya chiqindisi, plastifikatsiyalovchi kimyoviy qo'shimcha sifatida esa polikarboksilat efirlari asosidagi PRO500 superplastifikatori qo'llanildi.

Tadqiqotlar jarayonida fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullaridan foydalanildi. KQChni maydalash IIIJM-100 markali laboratoriya sharli tegirmonida amalga oshirildi. Mineral to'ldiruvchining dispersligi ПСХ-11А asbobidan foydalangan holda Kozeni-Karman havo o'tkazuvchanlik usuli bilan nisbiy sirt yuzasi bo'yicha aniqlandi.

Sement xamirining qotish muddati va normal quyugligi Vika asbobida, sement suspenziyalarining reologik xossalari LAMYREOLOGY rotatsion viskozimetrida o'lchandi. Kompleks qo'shimcha bilan modifikatsiyalangan sement tizimlarining g'ovakli tuzilishini o'rganish Thermo Scientific Pascal 240 EVO porozimetri yordamida simobli porometriya usulida olib borildi. Sement kompozitsiyalarining tuzilishi va fazaviy tarkibi rentgen difraktometriyasi usulida tekshirildi.

Bundan tashqari, o'z-o'zidan zichlanadigan maydadonador beton qorishmalarining tarkibini optimallashtirish uchun tajribani rejalashtirish matematik usulidan foydalanildi. Bu esa komponentlarning optimal nisbatlarini aniqlash va betonning asosiy xossalariga ta'sir etuvchi omillarni belgilash imkonini berdi.

Dissertatsiya ishining **"Metallurgiya sanoati chiqindilari va polikarboksilat superplastifikatori asosidagi kompleks qo'shimchaning sement toshi strukturasi va xossalaring shakllanishiga ta'siri"** nomli uchinchi bobi mineral va kimyoviy modifikatorlardan foydalangan holda kompleks sement bog'lovchilarining strukturasi va xossalarini ishlab chiqish hamda optimallashtirishga qaratilgan eksperimental tadqiqotlar natijalariga bag'ishlangan. Unda mineral mikroto'ldiruvchini mexanik faollashtirish jarayonlari ko'rib chiqilgan, sement suspenziyalarining reologik xossalari o'rganilgan va kompleks modifikatsiyalangan sement toshining struktura hosil bo'lishi hamda mustahkamlik ko'rsatkichlarining shakllanish qonuniyatlarini ochib beruvchi fizik-kimyoviy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.


Ma'lumki, turli xil xomashyolarni zarur fizik-mexanik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan texnik mahsulotlarga aylantirishning asosiy texnologik jarayonlaridan biri qattiq moddalarni sezilarli darajada o'zgartirishni ta'minlaydigan mexanik faollashtirish jarayonidir. Disperslash jarayoni natijasida nafaqat materialning granulometrik tarkibi o'zgaradi, balki faol markazlar sonining ko'payishi, zarrachalarning shakli va relyefining ortishi, nisbiy sirt yuzasining oshishi va kristall strukturaning amorf strukturaga o'tishi uchun sharoitlar yaratiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ushbu bobda KQChni mexanik faollashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tajribalardan olingan KQChni maydalash natijalari 1-rasmda aks ettirilgan.


Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mexanik faollashtirish KQChning nisbiy sirt maydonini sezilarli darajada oshirishga olib keladi. Bu ko'rsatkich 30 daqiqalik maydalashda 4412 sm²/g ga yetadi va materialning reaksiya qobiliyati oshganligidan dalolat beradi. Zarrachalarning o'rtacha o'lchami 13 mikrometrdan 5,4 mikrometrgacha kamayadi, bu esa dispersgatsiya samaradorligini tasdiqlaydi. Elak tahlili 008-raqamli elakdagi qoldiqning 64 foizdan 49 foizgacha kamayganini ko'rsatdi. Biroq, 30 daqiqadan ortiq maydalanganda zarrachalarning aglomeratsiyasi tufayli bu ko'rsatkich 93 foizgacha keskin oshdi. Bu esa

maydalashni davom ettirishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi, chunki agregatlarning hosil bo'lishi faollashtirish samaradorligini pasaytiradi va sement toshining xossalari yomonlashtirishi mumkin.

Yangi disperslangan mineral to'ldiruvchilarni saqlash jarayonida havoda mavjud suv molekularining yuzaga adsorbsiyalanishi natijasida ularning sirt faolligi pasayadi. Namlik ta'sirida sirtida protonlar va gidroksil guruhlar paydo bo'lib, faol markazlar bilan vodorod bog'lamlarini hosil qiladi, bu esa ularning reaksiyaga kirishish qobiliyatini kamaytiradi. Ushbu qonuniyatlarni inobatga olgan holda, mikroto'ldiruvchining saqlanish muddatining sement toshining mustahkamlik xossalari ta'siri eksperimental tarzda o'rganildi (2-rasm).




1-rasm. Sharli tegirmonning zarba-yedirilish rejimida KQChni mexanik faollashtirishning nisbiy sirt yuzasiga (A), zarrachalarning o'rtacha diametri o'zgarishiga (B), shuningdek, maydalash davomiyligining agregatsiya hodisaga (C) ta'siri ko'rsatilgan




2-rasm. Maydalashdan keyingi vaqt davomida namlik adsorbsiyasi tufayli mikroto'ldiruvchi faolligining pasayishi

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mineral materiallarning dispersligi ortishi bilan ularning reaksiya qobiliyatini belgilaydigan Brensted faol markazlarining konsentratsiyasi ham ortib boradi. Biroq, nisbiy sirtning muayyan qiymatiga erishilgandan so'ng, keyingi maydalash faollikning sezilarli darajada o'sishiga olib kelmaydi va energiya sarfi samarasiz bo'lib qoladi. Mikroto'ldirgichning optimal parametrlarini aniqlash maqsadida uning nisbiy sirtini 1000 dan 4000 sm²/g gacha va tarkibini 5 dan 40% gacha o'zgartirib tajribalar o'tkazildi. Sement toshining mustahkamlik xossalarini tahlil qilish natijasida optimal disperslik sohasi va to'ldirish darajasi mavjudligi, shuningdek, yuqori mustahkamlik ko'rsatkichlari hamda mineral qo'shimchalardan foydalanish samaradorligi aniqlandi (3 va 4-rasmlar).



3-rasm. KQCh ning nisbiy sirt yuzasi va mikroto'ldirish darajasining maydodonador betonning egilishdagi mustahkamligiga ta'siri




4-rasm. KQCh ning nisbiy sirt yuzasi va mikroto'ldirish darajasining maydodonador betonning siqilishga bo'lgan mustahkamligiga ta'siri

Eksperimental ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, sement toshining siqilish va egilishdagi mustahkamligi mikroto'ldirish darajasi va mikroto'ldiruvchining nisbiy sirt yuzasi oshishi bilan ortib boradi hamda $S_{yD}=3000$ sm²/g va bog'lovchi massasining 25% miqdorida eng yuqori darajaga yetadi. Bu ko'rsatkichlar yanada oshirilganda, sement ulushining kamayishi va zarrachalar agregatsiyasining kuchayishi natijasida mustahkamlik pasayadi. Ortiqcha disperslik bir jinsli bo'lmagan aglomeratlarning hosil bo'lishiga va struktura zichligining pasayishiga olib keladi. Bu esa sement kompozitsiyalarida maksimal sinergetik samarani ta'minlaydigan optimal mikroto'ldirish parametrlari mavjudligini tasdiqlaydi.

KQCh va SP qo'shimchalari bilan modifikatsiyalangan sement tizimlarining faza hosil bo'lish jarayonlari va tuzilmaviy rivojlanishini o'rganish uchun 28 kunlik sement toshi namunalarining rentgenfazaviy tahlili o'tkazildi. Tadqiqot AL-27mini difraktometrda monoxromatlangan $CuK\alpha$ -nurlanish ($\lambda = 1,5406$ Å) yordamida 30 kV kuchlanish, 10 mA tok, 0,02° qadam va 1°/min tezlikda bosqichli skanerlash rejimida amalga oshirildi. Bu esa fazalarni aniqlashning yuqori aniqligini ta'minladi (5-rasm).

KQCh bilan modifikatsiyalangan sement toshining fazaviy tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, qotishning 28 kunidan so'ng portlandit ($\text{Ca}(\text{OH})_2$) miqdori nazorat namunasiga nisbatan 38% ga kamayadi. Bu esa gidratatsiyaning keyingi bosqichlarida putssolan reaksiyasining faollashganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sement toshi tuzilmasini zichlashtiruvchi va mustahkamlovchi mayda dispersli kalsiy gidrosilikatlari (C-S-H) hosil bo'lishi hisobiga amorf fazaning 19% ga ortganligi qayd etildi.

Polikarboksilat superplastifikator qo'shilgan namunalarda alit miqdori 18% ga, belit miqdori esa 3% ga kamayishi kuzatildi. Bu klinker minerallarining gidratatsiyasi jadallashganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, portlandit miqdori 11% ga, ettringit 8% ga va amorf faza 3% ga oshdi. Bu esa superplastifikator ta'sirida suvning optimal taqsimlanishi va bir xilroq mikrostruktura shakllanishi bilan bog'liq.



5-rasm. 28 kunlik qotish muddatiga ega bo'lgan sement toshi namunalarning difraktogrammalari: a - qo'shimchalarsiz portlandsement; b - mineral to'ldiruvchili sement; v - polikarboksilat superplastifikatorli sement; g - kompleks modifikatsiyalangan tarkib

KQCh va superplastifikatorni birgalikda qo'llash eng yuqori samara berdi: portlandit miqdori 41% ga, ettringit miqdori 10% ga kamaydi, kalsiy gidrosilikatlarining ulushi esa 22% ga oshdi. Natijada zich, kam g'ovakli struktura hosil bo'ldi. Bu o'tkazuvchanlikni kamaytiradi va klinker minerallarining kechki gidratatsiyasini sekinlashtiradi. Olingan natijalar sement kompozitlarining fazaviy tarkibini optimallashtiradigan va uzoqqa chidamliligini oshiradigan kompleks qo'shimchani samaradorligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiya ishining "**Kompleks qo'shimcha tarkibini tanlash, uning o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonlar xossalari ta'sirini baholash va ishlanmani texnik-iqtisodiy asoslash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida KQCh va

SP asosidagi kompleks qo‘shimchali o‘z-o‘zidan zichlanuvchi maydadonador beton tarkibini optimallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

O‘z-o‘zidan zichlanadigan maydadonador betonning yaxshilangan xossalarini ta‘minlovchi kompleks qo‘shimchani optimal tarkibini asoslash uchun SP va KQCh ning birgalikdagi ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan tajriba tadqiqotlari o‘tkazildi. Maqsad mustahkamlik va uzoqqa chidamlilikni saqlagan holda yuqori qulay joylashuvchanlikka ega aralashmalarni olishdan iborat edi.

Tadqiqotlar "sement+qum" nisbati 1:2,5 bo‘lgan tarkiblarda olib borildi. Qonuniyatlarni aniqlash uchun SP (bog‘lovchi massasining 0,6-1,4% i) va KQCh (sement massasining 20-30%) miqdorini o‘zgartirish bilan ikki omilli tajriba amalga oshirildi. Modifikatsiyalash samaradorligini baholash uchun qo‘shimchalarsiz nazorat aralashmalari qo‘llanildi.

Asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar xizmat qildi: suv-sement nisbati, 1, 7 va 28 kunlik siqilish va egilishdagi mustahkamlik chegarasi, shuningdek namunalarning zichligi. Qorishmalarning harakatchanligi o‘z-o‘zidan zichlanadigan betonlarga qo‘yiladigan talablarga mos keladigan Xagerman konusidagi yoyilish (260-280 mm) bilan baholandi. 40×40×160 mm o‘lchamdagi namuna-to‘sinchalar GOST 310.4-81 va GOST 12730.1-2020 bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. Ikki omilli tajriba natijalari va o‘rganilgan tarkiblarning tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Maydadonador betonning tajriba rejasi va tadqiqot natijalari

№	Kompleks qo‘shimcha tarkibi		Konusning yoyilishi, mm	Javob funksiyasining o‘rtacha qiymati					
	SP, %	KQCh, %		Suv/Sem	R ₁ , MPa	R ₇ , MPa	R ₂₈ , MPa	R _{eg} , MPa	ρ, kg/m ³
	X ₁	X ₂		Y ₁	Y ₂	Y ₃	Y ₄	Y ₅	Y ₆
1	-	-	200	0,64	30,7	31,6	50,7	5,1	2047
2		20	195	0,72	6,6	10,5	21,4	4,1	1835
3		25	195	0,88	5,8	9,1	17,9	3,4	1804
4		30	190	0,97	4,2	7,5	15,7	2,6	1752
5	0,6	-	280	0,46	27,8	42,3	49,1	7,2	2166
6		20	270	0,5	28,8	40,2	48,1	7,1	2134
7		25	270	0,54	24,4	37,3	46,1	6,8	2071
8		30	270	0,58	21,1	34,3	44,7	6,2	2035
9	1,0	-	280	0,34	37,6	44,2	50,1	8,0	2215
10		20	280	0,34	36,5	46,1	51,1	8,9	2207
11		25	280	0,34	34,8	42,1	51,0	8,1	2189
12		30	275	0,38	30,1	39,8	49,2	7,7	2134
13	1,4	-	280	0,34	37,7	44,2	50,0	7,6	2214
14		20	280	0,34	36,4	46,1	50,1	8,8	2208
15		25	280	0,34	34,7	42,1	49,1	8,2	2188
16		30	280	0,38	30,2	39,8	48,1	7,6	2131

Eksperimental ma‘lumotlar tahlili (1-jadval) shuni ko‘rsatdiki, polikarboksilat superplastifikator (SP) mayda donali beton qarishmalarining o‘z-o‘zidan zichlanishini ta‘minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. SP qo‘shilmagan

tarkiblarda suv-sement nisbati oshirilishiga qaramasdan, talab etilgan harakatchanlikka erishib bo‘lmadi. Suv qo‘shish orqali harakatchanlikni oshirishga urinishlar aralashmaning qatlamlanishi va suv ajralishiga (yoyilish 190-210 mm) olib keldi. Bu esa bir jinsli bo‘lmagan tuzilishning shakllanishiga va betonning mustahkamligini pasayishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, SP qo‘llash sifatli o‘z-o‘zidan zichlanuvchi betonlar olishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Olingan natijalarni qayta ishlash va regressiya tenglamasining ahamiyatsiz koeffitsiyentlarini saralab chiqarishdan so‘ng matematik modellar ishlab chiqildi.

$$Suv/Sem=0,72-0,63X_1+0,25X_1^2-0,0026X_2+0,026X_2^2$$

$$R_1=9,61+42,94X_1-16,12X_1^2+0,27X_2-0,01X_2^2+0,037X_1X_2$$


$$R_7=28,03+42,09X_1-22,90X_1^2-0,46X_2-0,091X_2^2+0,52X_1X_2$$

$$R_{28}=45,23+29,02X_1-19,82X_1^2-1,025X_2-0,012X_2^2+0,84X_1X_2$$


$$R_{eg}=4,91+5,74X_1-2,76X_1^2+0,051X_2-0,04X_2^2+0,064X_1X_2$$

$$\rho=1932+543,5X_1-248,1X_1^2+0,25X_2-0,21X_2^2+2,99X_1X_2$$

6-11-raslarda o‘zgaruvchan omillar - SP va KQCh miqdorining ta‘sirida o‘z-o‘zidan zichlanadigan maydadonador beton qorishmalarining asosiy fizik-mexanik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini aks ettiruvchi izografik bog‘liqliklar tasvirlangan. Keltirilgan diagrammalarda suv-sement nisbati, 1, 7 va 28 kunlik siqilishdagi mustahkamlik, egilishdagi mustahkamlik hamda betonning o‘rtacha zichligining o‘zgarish qonuniyatlari kuzatiladi. Olingan izografik yuzalar o‘rganilayotgan omillarning umumiy ta‘sirini ko‘rgazmali tarzda namoyish etish va materialning talab qilinadigan ekspluatatsion xususiyatlariga erishishni ta‘minlaydigan optimal kombinatsiyalar sohaslarini aniqlash imkonini beradi.




6-rasm. Kompleks qo‘shimcha tarkibidagi SP va KQCh miqdoriga qarab o‘z-o‘zidan zichlanadigan maydadonador beton aralashmalarining suv-sement nisbatiga ta‘siri




7-rasm. Kompleks qo‘shimcha tarkibidagi SP va KQCh miqdoriga bog‘liq ravishda o‘z-o‘zidan zichlanadigan maydadonador beton qorishmalarining o‘rtacha zichligiga ta‘siri

Eksperimental ma‘lumotlarga asoslangan matematik modellar o‘z-o‘zidan zichlanadigan maydadonador betonlarning fizik-mexanik xossalari shakllanishiga ta‘sir etuvchi o‘zgaruvchan omillar - SP va KQCh miqdorining ta‘sirini har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Olingan regressiya tenglamalari yuqori darajadagi moslik va takrorlanish xossalari ega bo‘lib, bu ishlab chiqilgan


modellarning ishonchliligi va ularni o‘xshash materiallar tarkibini loyihalashda muhandislik hisob-kitoblari uchun qo‘llash mumkinligini tasdiqlaydi.




8-rasm. Kompleks qo‘shimcha tarkibidagi SP va KQCh miqdoriga bog‘liq ravishda maydonador betonning bir kunlik yoshdagi siqilishga bo‘lgan mustahkamligiga ta’siri



9-rasm. Kompleks qo‘shimchaning tarkibidagi SP va KQCh miqdoriga qarab, maydonador betonning 7 kunlik yoshdagi siqilishga bo‘lgan mustahkamligiga ta’siri



10-rasm. Kompleks qo‘shimcha tarkibidagi SP va KQCh miqdoriga bog‘liq ravishda 28 kunlik maydonador betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamlik chegarasi




11-rasm. Kompleks qo‘shimcha tarkibidagi SP va KQCh miqdoriga bog‘liq ravishda 28 kunlik maydonador betonning egilishdagi mustahkamlik chegarasi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompleks qo‘shimchaning tarkibiy qismlari o‘zgarishi betonning mustahkamlik xususiyatlariga chiziqsiz ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan parametrlarning oqilona nisbati aralashmaning harakatchanligi va sement toshi tuzilmasining zichligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab, optimal ekspluatatsion xossalarga erishish mumkinligi aniqlandi. Xususan, siqilish va egilishdagi eng yuqori mustahkamlik ko‘rsatkichlari superplastifikator miqdori 1,0% va kuygan qoliplash chiqindilari miqdori sement massasiga nisbatan 25% bo‘lganda kuzatilishi qayd etildi.

O‘z-o‘zidan zichlanadigan maydonador betonlarning asosiy texnologik parametrlari harakatchanlikning saqlanishi va qatlamlanishga bardoshlilik hisoblanadi (12-rasm). O‘rganilgan aralashmalarning batafsil tarkiblari va ularning

xossalari 2-jadvalda keltirilgan.



12-rasm. Tadqiq qilinayotgan tarkiblarda beton aralashmasining yoyiluvchanligining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi

2-jadval

Modifikatsiyalovchi qo'shimchalar bilan tayyorlangan beton qorishmalarining tarkibi va xossalari

№	Sement, kg	Qum, kg	Suv, l	KQCh, kg	SP, %	Suv/Sem	KCh, sm
1	550	1375	275	-	-	0,51	П5 (≥20 sm)
2	413	1597	190	-	1,0	0,34	
3	413	1460	190	137	1,0	0,34	

GOST 10181-2014 va GOST 30459-2008 bo'yicha (22 ± 2 °C) haroratda o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, qo'shimchalarsiz tarkiblar qo'llash samarasiz bo'lib, tezda harakatchanligini yo'qotadi. SP ning kiritilishi zarrachalarning sterik harakatlanishi hisobiga oquvchanlikning uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi, SP va KQCh dan birgalikda foydalanish esa aralashma strukturasi barqarorlashtiradi va suv ajralishini kamaytiradi. Kompleks qo'shimchani qo'llash PK2 sinfining harakatchanligini 3 soatdan ortiq saqlab qolish imkonini beradi, bir xillikni yaxshilaydi va tebranishsiz zichlashtirishsiz joylashtirish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'z-o'zidan zichlanadigan betonlarning an'anaviy betonlardan asosiy farqi ularning o'ziga xos reologik xossalari va zarrachalarning yuqori zichligida bo'lib, bu vibro tebranishsiz o'z og'irligi ostida mustaqil ravishda zichlanishini ta'minlaydi. Bu qolipni bir tekisda to'ldirish va zich, nuqsonsiz struktura hosil qilish imkonini beradi.

Aralashmalarining xossalari baholash V-voronka orqali oqish vaqti va L-qutichani to'ldirish bo'yicha me'yorlarga muvofiq amalga oshirildi (3-jadval).

3-jadval

O'z-o'zidan zichlanadigan beton qorishmalarining xossalari va sifat ko'rsatkichlarining ruxsat etilgan chetlanishlari

Beton aralashmasining sifat ko'rsatkichi nomi	Ko'rsatkich ning berilgan qiymati tushadigan oraliq	Ko'rsatkich ning berilgan qiymatdan yo'l qo'yiladigan og'ishi	Tarkiblar		
			1	2	3
O'rtacha zichlik, kg/m ³	2200-2600	±20	2225	2354	2306
V-simon voronka yordamida	9-25	±3	61	9	11

qovushqoqlik ko'rsatkichi, s					
L-simon quti yordamida sinovlarda to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati ko'rsatkichi, s	Loyiha bo'yicha	±0.05	To'liq yengib o'tilmadi	6	10

3-jadval tahlili shuni ko'rsatdiki, modifikatsiyalangan tarkiblar 9-11 soniyalik oqish vaqti bilan tavsiflanib, optimal oquvchanlikni ta'minlaydi. Nazorat tarkibida esa bu ko'rsatkich 61 soniyagacha yetgan. L-box sinovida modifikatsiyalangan qorishmalarning o'tish vaqti 6-19 soniyani tashkil etdi. Bu ularning yuqori harakatchanligini va o'z-o'zidan zichlanadigan betonlarga qo'yiladigan talablarga to'liq mos kelishini tasdiqlaydi.

Keyingi bosqichda o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonlarning fizik-mexanik xossalari kompleks qo'shimchani ta'siri o'rganildi (4-jadval).

4-jadval

Modifikatsiyalovchi qo'shimchalar qo'shilgan betonning xossalari

№	Beton sinfi	Prizmatik mustahkamlik, MPa	Elastiklik moduli, 10^3 , MPa	Suv o'tkazmaslik, Atm	Muzlashga bardoshlilik, davr	Suv yutuvchanlik, %	
						Massa bo'yicha, %	Hajm bo'yicha, %
1	B35	35,49	35,5	W8	300	6,1	14,2
2		38,7	35,8	W10	400	4,9	9,1
3		41,3	37,8	W12	450	4,5	8,3

Betonga qo'shimcha kiritilishi mustahkamlik va deformatsion xossalarni oshirishga yordam berishi aniqlandi. 3-tarkibning prizmatik mustahkamligi ($f_{c,prism}$) nazorat (1-tarkib) ga nisbatan 14,6% ga va 2-tarkibga nisbatan 6,7% ga oshdi. Elastiklik moduli (E_b) mos ravishda 6,5% va 5,2% ga ko'tarildi.

Kompleks qo'shimchani qo'llash, shuningdek, kapillyar g'ovaklikni kamaytirish orqali beton zichligini oshirdi, bu esa ekspluatatsion xossalarning yaxshilanishiga olib keldi. Muzlashga bardoshlilik F300 dan F450 gacha, suv o'tkazmaslik W8 dan W12 gacha ko'tarildi. Suv shimuvchanlik massa bo'yicha 6,1% dan 4,5% gacha va hajm bo'yicha 14,2% dan 8,3% gacha pasaydi, bu g'ovaklikning kamayishi va materialning uzoqqa chidamliligini yaxshilanishini tasdiqlaydi.

Betonning fizik-mexanik xossalari, jumladan, mustahkamligi, deformativligi, o'tkazuvchanligi va muzlashga bardoshiligini g'ovaklarning o'lchamlari, shakli va hajmiga bog'liq bo'lgan g'ovak tuzilishi bilan tavsiflanadi.

G'ovakli strukturani tahlil qilish uchun Thermo Scientific Pascal 240 simobli porozimetrdan foydalanildi. Beton namunalari (2-jadval) 28 sutka davomida qotgandan so'ng, 105 °C da quritildi, keyin vakuumda ishlov berildi va simob bilan to'ldirildi. Olingan porogrammlar asosida (5-jadval) o'rganilayotgan tarkiblarning

g'ovakli tuzilishining miqdoriy xususiyatlari aniqlandi.

5-jadval

Tadqiq etilayotgan namunalarning g'ovak tuzilishi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Tarkib №1	Tarkib №2	Tarkib №3
G'ovaklarning nisbiy hajmi (mm ³ /g):	51,11	44,12	41,78
G'ovaklarning umumiy sirt maydoni (m ² /g)	5,16	4,822	4,3
G'ovaklarning o'rtacha o'lchami (mkm):	0,024	0,022	0,021
Namunalarning umumiy g'ovakligi, %	9,81	8,89	8,42

Maydadonador betonning uchta tarkibini porozimetrik tahlil qilish natijalari modifikatsiyalovchi qo'shimchalar kiritilganda g'ovakli strukturaning qonuniy ravishda yaxshilanishini ko'rsatdi. Kompleks qo'shimcha qo'llanilgan 3-raqamli tarkibda umumiy g'ovaklik 2-raqamli tarkibga nisbatan 9,4% ga va 1-raqamli tarkibga nisbatan 14,2% ga kamaydi. Bu esa zichlikning oshishi va g'ovaklarni hajmining kamayishidan dalolat beradi.

3-raqamli tarkibdagi g'ovaklarning nisbiy hajmi 41,78 mm³/g gacha kamaydi, bu mos ravishda 1-raqamli va 2-raqamli tarkiblarning qiymatlaridan 18,2% va 5,3% ga pastdir. G'ovaklarning o'rtacha o'lchami 0,021 mkm ni tashkil etdi - bu o'rganilgan aralashmalar orasidagi eng kichik qiymatdir. G'ovaklik va ular o'lchamining kamayishi betonning zichligi, mustahkamligi va muzlashga bardoshlilikini oshirishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, tarkibda kompleks modifikatsiyadan foydalanish yanada zich, bir xil tuzilishni shakllantirishga yordam beradi va materialning yaxshilangan ekspluatatsion xossalarini ta'minlaydi.

XULOSA

“Kompleks modifikatsiyalangan bog'lovchi asosidagi o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador beton tarkibini ishlab chiqish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. KQChni 30 daqiqa davomida mexanik faollashtirish optimal nisbiy sirt yuzaga (4412 sm²/g gacha) va zarrachalarning o'rtacha o'lchami 5,4 mkm ga erishishni ta'minlashi aniqlandi. Maydalash vaqtining yanada ortishi zarrachalarning agregatsiyasiga va ularning reaksiya qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

2. KQCh va polikarboksilat superplastifikatorni birgalikda qo'shish sement suspenziyalarining strukturaviy qovushqoqligini 34-41% ga kamaytirib, aralashmalarning reologik xossalari va qulay joylashuvchanligini yaxshilaydi.

3. Ishlab chiqilgan optimal tarkibli kompleks qo'shimcha sezilarli sinergetik faollik ko'rsatadi: sementning gidratatsiyasini tezlashtiradi, past asosli kalsiy gidrosilikatlarining (C-S-H) hosil bo'lishini ko'paytiradi va portlandit miqdorini kamaytiradi, bu esa sement toshining yanada zich va barqaror strukturasi shakllantirishga yordam beradi.

4. Superplastifikator miqdori 1,0% va mexanik faollashtirilgan KQCh miqdori sement massasiga nisbatan 25% bo'lganda o'z-o'zidan zichlanuvchi maydadonador betonlarning optimal tarkibiga erishilishi aniqlandi. Natijada umumiy g'ovaklik 14% ga kamayadi, g'ovaklarning o'rtacha o'lchami 0,021 mkm gacha pasayadi, suv o'tkazmaslik W8 sinfdan W12 gacha va muzlashga bardoshlilikni F300 dan F450 davrgacha ortishiga olib keladi.

5. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kompleks qo'shimcha aralashmalarning harakatchanligini uzoq vaqt mobaynida saqlashini, qatlamlanishga chidamliligini va yotqizishda strukturaning barqarorligini ta'minlaydi.

6. Ishlab chiqilgan texnologiya "BUNYODKOR TEMIR-BETON INTERSERVIS" MCHJ korxonasiida joriy etildi. Joriy etish sement sarfini 25% ga kamaytirish, betonning muzlashga bardoshlilikini 1,5 baravar oshirish va suv o'tkazmasligini ikki sinfga ko'tarish imkonini berdi. Iqtisodiy samara 500 m³ hajmda 59,9 mln so'mni tashkil etdi. 1000 m³ beton qarishmasini ishlab chiqarishdan kutilayotgan samaradorlik 119,8 mln so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/31.08.2022.Т.73.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТОШЕВА ДИЛБАР ФАРХОДОВНА

**РАЗРАБОТКА СОСТАВОВ САМОУПЛОТНЯЮЩИХСЯ
МЕЛКОЗЕРНИСТЫХ БЕТОНОВ С КОМПЛЕКСНО-
МОДИФИЦИРОВАННЫМ ВЯЖУЩИМ**

Специальность 05.09.05-«Строительные материалы и изделия»

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2025.4.PhD/T6078.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Адилходжаев Анвар Ишанович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хасанов Бахридин Баратович**
доктор технических наук, профессор

Амиров Турсоат Жумаевич
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация: **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится "17" января 2026 г. в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.04 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер - №__). (Адрес: 100167, Ташкент ул. Темирийўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан "6" января 2026 года.
(протокол реестра № 30 от "5" января 2026 года).

С.С. Шаумаров

Заместитель председателя научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.З. Шермухамедов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.А. Ишанходжаев

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире развитию строительной отрасли предъявляются высокие требования к разработке конструкционных материалов, что является одним из важнейших вопросов постоянного улучшения их свойств. В настоящее время в развитых странах строительство осуществляется за счет использования самоуплотняющихся мелкозернистых бетонов в качестве инновационных решений. В связи с этим особое внимание уделяется вопросам разработки составов самоуплотняющегося мелкозернистого бетона на основе комплексного модифицированного вяжущего для цементного бетона как высокоэффективного материала, не имеющего аналогов.

В мире в строительной отрасли ведутся научно-исследовательские работы, направленные на формирование структуры цементного камня с высокой плотностью, низкой капиллярной пористостью и образованием новых гидратных соединений, с использованием мелкодисперсных минеральных наполнителей и химических веществ. В этом направлении, в частности, одной из актуальных задач является разработка наиболее удобного и простого способа получения самоуплотняющихся мелкозернистых бетонов с улучшенными эксплуатационными свойствами и комплекса высокоэффективных добавок на основе химических модификаторов и минеральных наполнителей для использования в технологии бетона.

